

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

KIMYO - BIOLOGIYA FAKULTETI

TABIATSHUNOSLIK KAFEDRASI

SHIRINOVA KAMOLA HOSHIMOVNA

**“ZARAFSHON SHAHRI: IQTISODIY-
IJTIMOIY GEOGRAFIK
XUSUSIYATLARI”**

5440500 – Geografiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr
kvalifikatsiyasini olish uchun

**BITIRUV
MALAKAVIY ISHI**

BMI kafedraning № sonli qarori
« » 2012 yil bilan himoyaga ruxsat etilgan

Kafedra mudiri: b.f.n., dostent M.M.To'rayev

Fakultet dekani: b.f.n., dostent X.T.Artikova

Ilmiy rahbar: g.f.n., dostent A.M.Mavlonov

Buxoro – 2012

Zarafshon shahri: iqtisodiy-ijtimoiy geografik xususiyatlari

Reja

Kirish	3
I Bob. Zarafshon shahriga umumiy geografik tavsif	
1.1 Shaharning geografik o'rnini va chegaralari. Tabiiy sharoiti	6
1.2 Zarafshon shahrining vujudga kelish tarixi, toponimikasi	13
1.3 "Resurs" shaharlar va ularning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati	15
1.4 Zarafshon shahri aholisi va mehnat resurslari	18
II Bob. Zarafshon shahrining iqtisodiy-ijtimoiy xususiyatlari va rivojlanish muammolari	
2.1 Sanoati va transporti	22
2.2 Shaharda nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi	33
2.3 Zarafshon shahri rivojlanishidagi ba'zi bir muammolar va ularni hal qilish yo'llari	43
Xulosa va takliflar	47
Foydalanilgan adabiyotlar	49

Kirish

*Q ush uchsa qanoti, odam yursa oyog'i
kuyadigan, necha-necha asrlardan buyon
qaqrab yotgan Qizilqum sahrosining
bepoyon kengliklari uzra mo'jazgina bir
shahar qad rosladi. Bu oltin toparlar
shahri Zarafshon edi.*

Zarafshon shahrining buniyod etilishiga asosiy sabab 1958 yilda undan chamasi 25-30 km uzoqlikda jahondagi eng ulkan va uzoq istiqbolga ega Muruntog' oltin koni topilganligidir. Garchi Zarafshon shahri qadimiy kentlardan sanalmasa-da, o'ziga xos tarixi, dunyo miqyosida tan olingan yer osti boyliklari va o'z o'rnini salohiyati bilan butun dunyoga ma'lum va mashhurdir. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan yuqori sifatli oltinning 80 foizi, uran konstitrati va fosfor o'g'itlari uchun zarur xom ashyoning hammasi aynan Navoiy kon metallurgiya kombinatida tayyorlanmoqda. Hatto dunyo miqyosida katta nufuzga ega London va Tokio qimmatbaho metallar birjalarida o'zbek oltini o'zining yuksak sifati bilan munosib baholanyapti.

Bepoyon Qizilum barxanlari aro faqat tuyalar karvoni bilan Sharq G'arbni bog'lab turgan Ipak yo'li ustida 1965 yilda qad ko'targan Zarafshon shahri bugungi kunda O'zbekistonning industrial markazlaridan biriga aylandi. Ayni paytda zamonaviy binolar, yuksak arxitektura yutuqlarini o'zida jam qilgan ko'p qavatli turar joylar, bog'lar va xiyobonlar shahar ko'rkiga yanada ko'rk qo'shib turibdi.

Zarafshon – oltin qazib oluvchilar, ya'ni konchilar shahri sifatida ma'lum. Bu voha – shahar haqli ravishda Markaziy Qizilqumning mo'jizasi hisoblanadi. Zarafshonda Qizilqumni o'zlashtirish o'lkashunoslik muzeyi bo'lib, uning bo'limlaridagi noyob ashyoviy dalillar ichida qadimgi ajdodlarimiz yashagan

manzillar, u yerlarda ma'dan eritib bronza, mis va boshqa metallar olingan o'choqlarning qoldiqlari saqlanmoqda.

Zarafshon shahri tabiiy sharoitining o'ziga xosligi, O'zbekistonning "resurs" shaharlari orasida eng kattaligi, mustaqillik yillarida sanoatining barqaror rivojlanayotganligi kabi omillar ushbu mavzuni tanlashimga **asosiy sabab** bo'lib xizmat qildi.

Mavzuning dolzarbligini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- Mamlakatimizning 70 %, Navoiy viloyatining esa 80 % hududini cho'lli hududlar tashkil etishi;
- Cho'lli zonasida aholi, aholi manzilgohlari va xo'jalik joylashuvining o'ziga xosligi – "o'choqsimon" joylashuvi;
- Zarafshon shahrining O'zbekiston rangli metallurgiya sanoatining 3 ta markazidan biri (qolgan ikkitasi – Olmaliq va Chirchiq) ekanligi;
- Shaharning Mustaqillik yillarida Respublika iqtisodiyotini integrastiyalashuv jarayonida munosib ishtirok etayotganligi (Qizilqum fosforit majmuasi, Navoiy – Uchquduq – Nukus temir yo'li va h.k.)

Mavzuning maqsadi O'zbekistonning boshqa shaharlaridan farqli, o'ziga xos tabiiy sharoitga ega bo'lgan – Zarafshon shahrining tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy geografik xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

Quyilgan maqsadga erishish uchun quyidagilar **vazifa** qilib belgilab olindi:

- ✓ Zarafshon shahrining tabiiy sharoitini kuzatish va shahar tabiiy sharoitining uni rivojlanishiga ta'sirini o'rganish;
- ✓ Shaharning demografik vaziyatini aniqlash;
- ✓ Zarafshon shahri sanoat korxonalarini faoliyatini tahlil qilish;
- ✓ Shahardagi nomoddiy ishlab chiqarish sohalari faoliyatini o'rganish;
- ✓ Zarafshon shahrida vujudga kelgan muammolarni belgilash va ularning yechimiga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishimni yozish davomida Zarafshon shahri va uning tarixiy – geografik, iqtisodiy-ijtimoiy sohalariga bag'ishlangan adabiyotlar, ilmiy maqola va tezislar, gazeta va jurnallarda nashr etilgan chiqishlarni o'qib o'zlashtirdim. Bundan tashqari, O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi, O'rta Osiyo geografiyasi, shaharlar geografiyasi, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari kabi fanlardan olgan bilimlarimga tayandim.

BIRINCHI BOB. ZARAFSHON SHAHRIGA UMUMIY GEOGRAFIK TASVIF

1.1 SHAHARNING GEOGRAFIK O'RNI VA CHEGARALARI. TABIIY SHAROITI

Zarafshon shahri mamlakatimizning markaziy qismida, Qizilqum sahrosida joylashgan. Zarafshonning geografik o'rnini $41^{\circ}35'$ sh.k. va $64^{\circ}15'$ shq uz. ga to'g'ri keladi. Shahar markaziy Qizilqumning eng baland tog'i hisoblangan – Tomditog'ning (mutloq balandligi 974 m) shimoli-g'arbiy qismida vujudga kelgan. Shaharning tabiiy sharoiti va iqlimi uni o'rab turgan Qizilqum cho'li bilan chambarchas bog'liq.

Cho'lning Qizilqum deb atalishiga sabab uning ko'p qismini egallab yotgan qumlar rangining qizilligidir. Qizilqumda qadimda juda baland bo'lgan, hozir esa uzoq davr mobaynida nurash, denudatsiya tufayli pasayib qolgan tog'lar bor. Mezozoyda va uchlamchi davrning boshlarida bu yer iqlimi subtropik bo'lgan va tog'larning yonbag'irlarida qizil rangli tuproqlar tarqalgan. Mana shu qizil tuproqlarning nurashidan hosil bo'lgan qizil rangli tog' jinslar qumlarga qizil rang bergan. Biroq cho'l Qizilqum deb atalgani bilan uning hamma qismida ham qizil rangli qumlar uchramaydi. Masalan, Qizilqumning janubiy qismidagi qumlar rangi to'q kul rang. Bu qumlar Zarafshon daryosi olib kelgan yotqiziqlardan hosil bo'lgan.

Zarafshon shahri janubi-sharqdan shimoli-g'arbga tomon pasayib boradi. Uning o'rtacha mutlaq balandligi 300-350 m dir. Shahar atrofi relyefining asosiy shakllari eol qumliklari, pushtasimon qum tepalari (nisbiy balandligi 4-15 m, ayrim yerlarda 25-30 m gacha yetadi), past tog'lar atrofidagi prolyuvial shleyflar, platolardan iborat. Inson xo'jalik ta'siri tufayli ushbu relyef shakllari o'zining tabiiy holatini o'zgartirgan.

1 – rasm. Zarafshon shahriga kirish joyi.



2 – rasm. Zarafshon shahri ko'rinishining bir qismi



Zarafshon shahri iqlimi juda ham quruq bo'lgani sababli doimiy oqar suv shakllanmaydi. Lekin shahar va uning atrofidagi hudud yer osti suvlariga ancha boy. Bu suvlardan foydalanib, kichik vohalar bunyod qilingan, ularda turli xil ekinlar yetishtiriladi. Yer osti suvlaridan chorvachilikda, sanoatda, aholini ichimlik suv bilan ta'minlashda ham foydalanilmoqda. Qizilqumning ko'p qismida grunt suvlari turon svitasi qumliklarida uchraydi, ularning minerallasish darajasi yuqori, ichish uchun yaramaydi. Okrugda qalin barxan qumlari ostida, taxminan 100 m chuqurlikda chuchuk grunt suvlari mavjud bo'lib, ularning minerallasish darajasi 1 g/l dan kam. Chuchuk grunt suvlarining katta miqdori Markaziy Qizilqumdagi qoldiq tog'lar etaklaridagi prolyuvial yotqiziqlar orasida ham mavjud. Qizilqumda mezozoy va paleogen yotqiziqlari orasida bosimli chuchuk artezian suvlarining katta zahirasi mavjud. Ularning minerallasish darajasi botiqlarda 1-3 g/l ni tashkil etadi. Qizilqumda yer osti suvlarining dinamik miqdori sekundiga 58-60 m³ ga teng. Shundan 11 m³/s Markaziy Qizilqumga, 4 m³/s Qizilqumning shimoli-sharqi va shimoliga, 43,6 m³/s Qizilqumning shimoli-g'arbiy qismiga to'g'ri keladi.

Zarafshon shahri iqlimi uni atrofidagi Qizilqum cho'li iqlimidan biroz pastligi bilan ajralib turadi. Qishda shaharda havo harorati ancha past bo'ladi. Yanvarning ko'p yillik o'rtacha harorati -4,1, -7,8⁰ ni tashkil etadi, eng past harorat -31, -34⁰ ga tushadi. Yoz esa issiq. Iyul oyining ko'p yillik o'rtacha havo harorati +30, +31⁰ ga teng. Eng yuqori harorat 46⁰ ga boradi. Yillik yog'in miqdori 70-100 mm atrofida.

Shahar hududi va uning yaqin atroflarida cho'l qumli tuproqlar, qoldiq tog'lar shleyflarida sur-qo'ng'ir tuproqlar, o'zlashtirilgan joylarda voha tuproqlari tarqalgan. Bu tuproqlar kam hosil, ularda chirindi miqdori 0,4-0,5 % dan oshmaydi. Zarafshonda tabiiy holda uzoq davom etadigan jazirama quruq yoz sharoitiga moslashgan kserofit, psammofit va efemer o'simliklari o'sadi.

Bahorda Yer yuzasi efemer va efemeroidlardan – rang, qo'ng'irbosh, yaltirbosh, lolaqizg'aldoq, chuchmoma, kovrak kabi o'simliklar bilan qoplanib, cho'lga o'xshamay qoladi. Lekin kunlarning isishi bilan efemer va efemeroidlar sarg'ayib qurib qoladi, psammofit va kserofit o'simliklar esa o'z vegetastiyasini davom ettiradilar.

Sur qo'ng'ir tuproqlar tarqalgan qoldiq tog'larda va ularning etaklarida shuvoq, burgan, tereskan, toshburgan, saksovul, pastqam joylarda qora saksovul, yulg'un, baliqko'z, sarsazan, qorabaraq, shoxiloq va boshqa bir yillik sho'ralar o'sadi.

Hayvonlari O'rta Osiyo cho'llariga xos bo'lgan vakillardan iborat. Garchi shaharning o'zlashtirilgan qismlari katta hududlarni egallasada, unda ba'zan cho'l hayvonlari – kemiruvchilardan ingichka oyoqli yumronqoziq, qum sichqoni, shalpanquloq, qo'shoyoqlar, toshbaqa, tipratikan, sudralib yuruvchilardan dumaloq bosh kaltakesak, agama, echkemar, o'qilon, sutemizuvchilardan – quyon, hasharotlardan esa chayon, qoraqurt, falanga, chigirtka, qushlardan - ko'k kaptar, musicha, mayna, dala chumchug'i va boshqalar uchraydi.

Shahar atrofidagi joylar tabiiy boyliklarga boy. Foydali qazilmalari (oltin, uran, fosforit, grafit va boshqalar), iqlim resurslari, yaylovlari, yer osti suvlari yurt boyligidir.

Yer osti qazilma boyliklarining katta zahiralari asosida Zarafshonda yirik sanoat korxonalari, konlar faoliyat ko'rsatmoqda va bular mamlakatimiz iqtisodiyotining yuksalishida munosib ulush qo'shmoqda.

Qizilqum okrugi ikkita tabiiy geografik rayon guruhiga, ya'ni Shimoliy va Janubiy tabiiy geografik rayonlar guruhiga bo'linadi. L.N.Babushkin va N.A.Kogay Shimoliy rayonlar guruhida Sultonuvays, Shimoliy Qizilqum va Bo'kan-Etimgo' tabiiy geografik rayonlarini, Janubiy rayonlar guruhida esa Janubiy Qizilqum va Tomdi-Quljuqtog' tabiiy rayonlarni ajratadilar. Zarafshon shahri joylashgan hudud – Tomdi-Quljuqtog' tabiiy rayoniga tegishlidir.

3 – rasm. Zarafshon shahrining bahor faslidagi manzarasi



4 – rasm. Zarafshon shahrining qish faslidagi manzarasi



5 – rasm. Zarafshon shahridagi istirohat bog'i



6 – rasm. Zarafshon shahri atrofidagi sun'iy ko'l



1.2 ZARAFSHON SHAHRINING VUJUDGA KELISH TARIXI, TOPONIMIKASI

Zarafshon deb atalmish bepoyon qumliklardagi yashil orolchani “Qizilqum cho’llari bilan bellashgan sahro mo’jizasi” deya ta’riflash mumkin. Zarafshon butun umrini noyob Muruntog’ konini o’zlashtirishga bag’ishlagan, oltin qazib oluvchilar shahri. Zarafshonning asosiy ishlab chiqarish korxonasi Markaziy Kon boshqarmasi bo’lib shahar uning balansidadir.

Zarafshon shahri 1965 yil tashkil etilib, O’zbekiston Respublikasining Navoiy viloyati shaharlarining oltitasidan biridir. Zarafshon shahri viloyatning markazidan 200 km uzoqlikda shimoliy g’arbda joylashgan.

XX asrning o’rtalarida O’zbekiston geologlari tomonidan noyob Muruntog’ oltin koni ochilgan. 1964 yilning may oyida hukumat tomonidan oltin ishlab chiqarish majmuasi va shahar qurish haqida qaror qabul qilindi va shu yilning 10 sentyabr kuniyoq “Qizilqum ” temiryo’l stanstiyasiga birinchi quruvchilar kelib tushgan, turli mexanizim, qurilish materiallari, oziq – ovqat yuklangan vagonlar kela boshlagan. Bir vaqtning o’zida 220 kv. ga mo’ljallangan Qizilqum – Zarafshon – Bassopan elektr uzatish tizimi, Amudaryo – Zarafshon – Bessopan suv quvur yo’llari, Qizilqum – Zarafshon – Bassopan temir yo’li, Navoiy – Zarafshon – Uchquduq avtomobil yo’li qurilishi ishlari amalga oshirilgan. Shahrimiz tarixida yodda olgan muhim sanalardan biri bu 1969 yilning 27 - may kunidir. Bu kunda sahroning o’rtasida Amudaryoning katta suvi kelgan, Amudaryo – Zarafshon suv quvuri yo’llari va 2 - GMZ ning ishga tushishi bir paytda amalga oshirilgan va bu bayramni shaharliklar katta tantana bilan o’tkazadilar. “Shaharga – suv respublikaga oltin!” shiori har bir cho’lda yashovchi kishiga yaqindir, chunki bu yerda suv oltinda qimmatligini hamma tushunadi. Zarafshon bu sahrodagi sarob emas balki bunyodkorlarning yo’llari bilan yaratilgan mo’jizadir. Yaxshilikka burkangan va dala hovlilar bilan o’ralgan. Zarafshon ilk quruvchi konchilarning bir qancha avlodining vataniga aylangan. Shaharning umumiy maydoni -2142,2 ga bo’lib, bunda 17764 ta turar joylar va 18736 ta oilalar yashamoqda.

Shaharda uzoq va yaqindan kelgan chet ellik hamkorlar bilan faoliyat ko'rsatayotgan qo'shma korxonalar faoliyat yurtimoqda: "Amantaytau Goldfields" O'zbekiston- Britaniya qo'shma korxonasi, "Velan" va "Dobrodeya" O'zbekiston-Rossiya qo'shma korxonalari.

Shahar tashqi dunyo bilan rivojlangan avtomobil, temir yo'l va havo transport tarmoqlari bilan bog'langan. Shahar va sanoat maydoni suv ta'minoti Amudaryo daryosidan Amudaryo- Zarafshon suv ta'minoti quvurlari orqali amalga oshiriladi. Ushbu quvur yo'llarining uzunligi 240 km tashkil etadi.

Yildan-yilga Zarafshonning qiyofasi o'zgarib bormoqda. Kichik va shaxsiy biznesning rivojlanib borishi shaharda ko'plab korxonalarining savdo va maishiy xizmatning o'sib borishiga omil bo'ldi.

Ta'lim sohasining isloh qilinishi Zarafshon shahrining arxitektura ko'rinishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Sobiq kasb-hunar bilim yurti qaytadan tiklandi. Yangi tipdagi o'quv muassasalari, ya'ni akademik listey, tibbiyot kolleji, kompyuter texnologiyalari kolleji kabi o'quv dargohlari faoliyat ko'rsata boshladi.

O'zMU Tabiiy geografiya va geografiya ta'limi metodikasi kafedrasini mudiri, g.f.n., dostent M.T.Mirakmalov "Geografiyada toponimika" nomli o'quv qo'llanmasida **Zarafshon toponimiga** quyidagicha ta'rif beradi: Zarafshon – daryo. Tojikiston va O'zbekistondan oqib o'tadi. Tarixiy manbalarda Politimet, Namiq, Rudi Mosaf, Haromkom, Rudi jarg', Somjan, Vodiy – ussug'd, Nahrul Buxoro, Daryoyi Ko'hak kabi nomlar bilan tilga olinadi. XVIII asrdan Zarafshon deb yuritila boshladi.

E.Murzaevning yozishicha, toponimning xalq orasidagi **zar** – "**oltin**", **afshon** – "**sochuvchi**" (**oltin sochuvchi**) etimologiyasi haqiqatga yaqindir. Chunki, daryo vohani sug'orishda va dehqonchilik ishlarida muhim rol o'ynaydi. Toponimning bu izohi unchalik ishonchli emas. Zarafshon shahri daryo nomi asosida vujudga kelgan (2008, 74 b).

1.3 “RESURS” SHAHARLAR VA ULARNING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDAGI AHAMIYATI

Zarafshon shahri viloyat markazi – Navoiy shahridan 200 km shimoli-g’arbda joylashgan. Ma’muriy jihatdan viloyatga bo’ysunuvchi 2 ta shahardan biri (ikkinchisi – Navoiy) hisoblanadi. Shaharning tashkil topishi uni yaqinida joylashgan oltin konining ochilishi bilan chambarchas bog’liq.

Shaharning keyingi rivojlanishi ana shu tabiiy resursni qazib olish va uni mamlakat iqtisodiyotining ravnaqi uchun etkazib berish bilan bog’liq holda kechdi. Ma’lumki, mineral xom ashyo resurslari shaharlarni shakllanishida va hatto rayonlarni tashkil qilishda asosiy omillardan biri bo’lib hisoblanadi. Shaharlarning katta-kichikligi mineral resurslarning tarkibi va zahirasiga bog’liq. Qazilma boyliklar yoki boshqa tabiiy boyliklarni ishga tushirish orqali vujudga kelgan manzilgohlarni ilmiy adabiyotlarda *“resurs shaharlar”* deb aytiladi. Bunday shaharlarning aksariyatida bir xil ma’dan ishlab chiqarish yo’lga qo’yilgan va ular tor darajadagi ixtisoslashuvga ega. Bunga ularning ekstremal tabiiy sharoitga egaligi, transport magistrallaridan uzoqligi, ekologik holatining noqulayligi sababchi bo’lgan. Noqulay iqlim va ekologik vaziyat tufayli cho’l zonasida shaharlar va shaharliklar sonining o’sishi nihoyatda sekin kechadi. Juda katta maydonni egallagan O’rta Osiyo cho’llarida ham shaharlar soni uncha ko’p emas. Jumladan, Qoraqumda – 18 ta, Qizilqumda – 5 ta bo’lib, ularning aksariyatida kichik shaharlar tashkil etadi. Shuningdek, gaz quvurlari bo’ylab kam sonli aholiga ega (100-300 kishi) yangi manzilgoh tipi – gaz kompressor stanstiyalari posyolkalari hosil bo’lgan (Babaev A.G., 1980).

Umuman olganda, resurs shaharlar mamlakatlar va mintaqalar iqtisodiyotida muhim o’rin tutadi. Garchi ular aholi soniga ko’ra yirik bo’lmasada, shaharlar to’rida o’z o’rniga ega. Resurs shaharlar soni Rossiyada taxminan 300 taga, O’rta Osiyoda 161, O’zbekistonda 63 taga teng.¹

¹ Ресурс шахарлар сони Россияда Г.М.Лаппо, Ўрта Осиё ва Ўзбекистонда З.Х.Райимжонов маълумотлари асосида берилган.

Navoiy viloyatida Zarafshon, Muruntov, G'ozg'on, Buxoro viloyatida Qorovulbozor, Gazli va Zafarobod singari resurs shaharlar vujudga kelgan. Mazkur shaharlar orasida Zarafshon shahri aholi soniga ko'ra eng yirik hisoblanadi.

Farg'ona vodiysi va Toshkent rayoni kabi O'zbekistonni nisbatan taraqqiy etgan mintaqalarida shaharlar to'ring ko'payishi sobiq Ittifoqning dastlabki yillaridan boshlangan bo'lsa, viloyatimizda mazkur jarayon o'tgan asrning 60-yillaridan keyin kuzatiladi. Bu davrda shakllangan shahar manzilgohlari rayon iqtisodiyotining kelajakdagi taraqqiyoti uchun asos bo'ladigan tabiiy boyliklarni o'zlashtirish evaziga tashkil topdi. Bunga yaqqol misol sifatida 1967 yilda Muruntov oltin konidan ma'dan qazib olish va o'zlashtirish markazi sifatida vujudga kelgan, mamlakat oltin qazib olish sanoatining asosiy markazi Zarafshon shaharchasini keltirish mumkin. Ma'lumki, o'tgan asrning 60-yillarida respublikada metallurgiya, xususan rangdor metallurgiya sanoatini rivojlanishiga katta e'tibor berildi. Ayniqsa, Qizilqum cho'lida yirik zahiraga ega bo'lgan Muruntov oltin koni muhim ahamiyat kasb etadi. Bu konning topilishi bilan 1967 yilda uning yaqinida Zarafshon shaharchasiga asos solindi. Shaharda ko'plab oltin qazib olish sanoatiga oid korxonalar qurildi. Natijada, shaharning demografik va iqtisodiy salohiyati oshib, u 1972 yilda O'zbekistonning shaharlari qatoridan joy oldi.

7 – rasm. O‘zbekiston oltinlari



8 – rasm. Zarafshon shahri atrofidagi dala-hovlilar



1.4 ZARAFSHON SHAHRI AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada aholini o'rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Aholiga turli olimlar turlicha ta'rif berishgan. Masalan, prof. O.B.Ata-Mirzaev fikricha, aholi – ijtimoiy ishlab chiqarish va joylashtirish (rasseleniya) ning sub'ekti va asosi, u ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilishga ta'sir ko'rsatadi hamda moddiy va ma'naviy boyliklarning istemolchisidir (1979, b. 21). G.R.Asanov o'zining sotsial – iqtisodiy geografiyaga oid termin va tushunchalar izohli lug'atida aholini quyidagicha ta'riflaydi: Aholi qayta tiklanish jarayonida soni uzluksiz tiklanib turadigan umuman yer sharida yoki uning biron bir qismida yashaydigan kishilar majmui, barcha ijtimoiy munosabatlar va ishlab chiqarishning negizi va sub'ekti (2002, b. 21).

Prof. A. S. Soliev ta'biri bo'yicha, aholi murakkab ijtimoiy – iqtisodiy kategoriyadir, u bilan ishlab chiqarish «boshdan oyoq» chambarchas bog'liq. Chunki mehnat resurslarisiz ishlab chiqarish bo'lmaydi, ishlab chiqarish esa aholi uchun kerak; moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchisi ham, ularni iste'molchisi ham aynan ana shu aholi, ya'ni kishilarning ma'lum hududdagi birligidir (2003, b. 73).

1 – jadval

Buxoro viloyat shahar manzilgohlarida aholi sonining o'zgarishi

T/r	Shahar va shaharchalar nomi	Aholi soni, ming kishi						
		1959	1970	1979	1989	1995	2000	2011
1	Navoiy	5,4	61,9	83,1	105,4	113,0	140,9	123,0
2	Zarafshon		14,7	35,3	47,7	49,3	53,3	57,2
3	Nurota			15,6	20,9	24,1	26,6	29,0
4	Uchquduq		18,9	20,8	24,4	25,1	26,6	23,2
5	Yangirabod				11,4	13,2	14,9	16,2
6	Qiziltepa			7,7	9,1	11,1	12,0	12,9

Izox: Jadval Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.


Darhaqiqat, aholi bilan ishlab chiqarish o'rtasida mustahkam aloqadorlik mavjud. Bular bir – birisiz umuman rivojlana olmaydi. Shuning uchun ham iqtisodiy geografiyada aholini o'rganish doimo asosiy o'rinni egallab kelgan. Ayniqsa buni shahar joylari misolida ko'rish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot ob'ektimiz hisoblangan Zarafshon shahri aholisining soniga ko'ra viloyatda Navoiy shahridan keyin 2-o'rinda turadi. Shahar aholisining soni, 2011 yil 1 yanvar ma'lumoti bo'yicha, 57,2 ming kishini tashkil etadi.

Zarafshon shahri aholisi XX asrning so'nggi choragida juda tez sur'atlar bilan o'sdi. 1970 yildagi aholi ro'yxati davrida Zarafshon shaharchasida 14,7 ming aholi mavjud edi. Keyingi o'n yillikda shahar aholisi 2,5 martadan ortiqroq ko'paydi. Agar 1970 yil Zarafshonda 14,7 ming k yashagan bo'lsa, 1979 yilga kelib shahar aholisi 35,3 ming kishiga etdi (1-jadvalga qarang). O'tgan asrning 70-yillarida shahar aholisi soni 20,6 ming kishiga ortdi. 80-yillardan keyin esa shahar aholisining ko'payishi biroz sekinlashdi. Shunday bo'lsada, 1979-1989 yillar mobaynida shahar aholisi 12,3 ming kishiga ko'paydi.

9 – rasm. Zarafshon shahri aholisi soning ortib borishi

(ming kishi hisobida)



Rasm Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.


Mustaqillik yillarida Respublikamizning barcha shaharlari singari Zarafshon shahridan ham tashqi migratsiya kuchaydi. Natijada shahar aholisining o'sishi nihoyatda sekinlashdi. Agar 1989 yil Zarafshonda 47,7 ming k yashagan bo'lsa, 2011 yilga kelib shahar aholisi 57,2 ming kishiga yetdi, ya'ni o'tgan 22 yil (1989-2011 yillar) orasida shahar aholisi bor yo'g'i 9,5 ming kishiga ko'paydi, xolos (9-rasmga qarang).

Zarafshon shahar kengashiga shu nomli shahardan tashqari, Muruntog', Daugistov va yangi Zarafshon mahallalarining ham aholisi kiradi. Ular bilan qo'shib hisoblaganda, shahar aholisi soni 74 mingga yaqin kishini tashkil etadi. Shaharda 13 ta mahalla fuqarolar yig'inlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Zarafshon ko'p millatli shahar bo'lib, hamshaharlar o'zbek, qozoq, rus, ukrain, turkman, tatar va boshqa tillarda so'zlashadir. Shahar aholisining milliy tarkibida o'zbeklar - 44 %, qozoqlar -22 %, ruslar -18 %, tatarlar -3 % va boshqa millatlar 13 % ni tashkil etadi.

10 – rasm. Zarafshon shahri aholisining milliy tarkibi

(% hisobida)



Rasm Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Shaharda 17764 ta turar joylari bo'lib, ularda 18736 ta oilalar istiqomat qiladi. Shahar va atrofdagi qishloqlarda yashovchi o'sib kelayotgan yosh avlod uchun 13 ta maktab faoliyat ko'rsatmoqda, ularda 12 mingga yaqin bolalar tahsil olmoqdalar. Zarafshondagi ta'lim muassasalarida ta'lim 3 tilda – o'zbek, qozoq va rus tillarida olib boriladi.

IKKINCHI BOB. ZARAFSHON SHAHRINING IQTISODIY-IJTIMOIIY XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH MUAMMOLARI

2.1 SANOATI VA TRANSPORTI

Zarafshon shahrida ko'plab korxonalar va tashkilotlar, boshqarmalar o'z faoliyatini yuritmoqda. Jumladan: 41 ta sanoat korxonalarini, 386 ta kichik biznes sub'ektlari, 3 ta asosiy savdo tarmoqlari, 39 ta qurilish tashkilotlari. 18 ta transport tashkilotlari.

Shaharning asosiy tayanch korxonasi Navoiy KMK ning Markaziy Kon boshqarmasidir. Uning tasarrufida "Muruntog'" kon 2-GMZ, OUIS koni, Qizilqum fosforit majmuasi va boshqa bo'linmalar mavjud. Shular bilan bir qatorda Navoiy KMK tasarrufiga kiruvchi Zarafshon qurilish boshqarmasi ham faoliyat yuritmoqda.

Navoiy kon – metalurgiya kombinati (NKMK)

Navoiy kon – metalurgiya kombinati (NKMK) ning umumiy chiqarayotgan mahsulotining qariyb 85 % ini Zarafshonliklarning mas'uliyati tashkil etadi. Ularning mehnati tufayli respublikamiz dunyo miqyosida oltin ishlab chiqarayotgan 10 ta davlatlardan biriga aylandi. Bundan tashqari shahar aholisi fosforit ishlab chiqarishi bilan faxrlanadi. Bu mahsulotning zahiralari va sifati jihatidan MDH ichida yagona. Kombinat xizmatchilarining, jumladan Zarafshonliklarning mehnat yurtboshimiz I.A.Karimov tomonidan yuksak baholandi. NKMK 2000 yilning 20 yanvarida oliy mukofot – "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlandi.

Muruntog' koni

Muruntog' oltin koni Evroosiyo materigidagi eng katta oltin zaxirasi ega konlardan biri bo'lib hisoblanadi. 1967 yildan buyon kon shu nom bilan atalib kelinmoqda. Konning ahamiyatli tomoni shundaki undan tabiiy boylik ochiq usulda qazib olinadi, shuningdek, yuqori sifatli sof oltin bilan mashhurdir. Muruntog' konining chuqurligi 550 metrdan oshdi.

11 – rasm. Navoiy kon-metallurgiya kombinati Markaziy kon boshqarmasi



12 – rasm. 2-Gidrometallurgiya zavodi (GMZ)




Keskin ob-havo sharoiti, o'ziga xos geologik va kon texnik xususiyatlari Muruntog' konini eng ilg'or kon texnikasi va texnologiyalarini sinash va tadbiiq qilish yirik inshoot maydoniga aylantirdi.

Texnologik jarayonlarni kompyuter texnologiyasi bilan qazilma ishlarini matematik jihatdan modellashtirish kon ishlarini loyihalashtirish va rejalashtirish qazib olish majmuasini o'zgaruvchan sharoitga moslashtirishga yordam beradi.

Chuqur kon ish jarayonini boshqarishning yangi konsepstiyasi bir qator yillar mobaynida Muruntog' oltin qazib olish majmuasi ishlab chiqarish quvvatlarini erishilgan darajada saqlab turish imkonini berdi. Muruntog' tog'ining ochiq konining rivojlanish istiqboli uning chuqurligini 1000 metrga etkazish hamda ochiq – yer osti kon atrofi zahiralarni aniqlashga asoslangan. Bu 2-Gidrometallurgiya zavodida ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish bilan birga kelajakda oltin qazib olish majmuasining samarali ish yuritishini ta'minlaydi.

1967 yilning 5 martida Muruntog' ochiq konidagi birinchi ommaviy portlash cho'lining ko'p asrlik osoyishtaligini buzdi. Bu portlash markaziy Qizilqum yer osti boyliklarini o'zlashtirishga turtki bo'ldi. Qariyb 40 yildan ortiq Muruntog' ochiq kon majmuasidan ma'dan qazib olinmoqda va jahon talablariga mos ochiq siflati maxsulot etkazib berilmoqda. Ma'dan oqimi sifatini avtomatik boqarish tizimi asosida ma'danli zonalarni ishlash selektiv to'plam texnologiyasini joriy etish yordamida kon ishlari yangi konsepstiyaning tadbiiqi 2006 yilda ma'danni to'g'ridan-to'g'ri kar'erning yuklash maydoniga tashish davriy oqim texnologiyasi tadbiiq qilish imkoniyatini yaratdi. Davriy oqim texnologiyasini (DOT) majmuasining tadbiiq qilinishi texnologik transport va kon ishlab chiqarish samaradorligini ancha oshirdi, uning keyingi mukammalashuvi kar'erning o'zgarib borayotgan kon texnik sharoitiga tizimli moslashuvi yo'lidan bormoqda.

НАВОИЙ ВИЛОЯТИ, ИҚТИСОДИЙ ХАРТА



Ob-havoning injiqligiga qaramasdan kecha-yu kunduz ishchilar o'z ish joylariga: Muruntog', Toshkura, ikkinchi Gidrometallurgiya zavodi, Avtomobil transporti boshqarmasi va markaziy kon boshqarmalarining boshqa bo'linmalariga oshiqadilar.

Oltinni uyumlash ishqorlash koni

Zarafshon shahrining kon jismlarini qayta ishlash bo'yicha eng yosh korxonalaridan biri 2007 yilda tashkil etilgan oltinni uyumlash ishqorlash konidir. Oltinni uyumlash ishqorlash konning asosiy vazifasi Muruntog' kar'eri omborlaridagi tarkibida kam oltin bo'lgan madanlarni uyumlab ishqorlash uslubi bilan qayta ishlashdir. Bunday texnologiyani qo'llash tufayli oltinni uyumlash ishqorlash konida "DORE" qorishmasi olinadi va 2-GMZ da "9999" quymasi darajasiga etkaziladi. Texnologik jarayonda ma'danni maydalab uyumlab to'plash uyulmalarni ishlanma qorishma bilan to'ydirish, qorishma olish samaradorligi oshirish va qayta ishlash kabi amallar bajariladi.

Emulstion portlovchi moddalarni ishlab chiqarish zavodi

2002 yilda Emulstion portlovchi moddalarni ishlab chiqarish (EPMICH) zavodining qurilishi tufayli qimmatbaho portlovchi moddalarni chet eldan xarid qilishdan voz kechish va 80-85 % O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan mahalliy xom ashyoga o'tishga va valyuta mablag'larini iqtisod qilishga erishildi.

"Muruntog'" shaxtasi

"Muruntog'" shaxtasining asosiy vazifasi – Muruntog' koning chuqur qatlamlari va yon tomonlaridagi yer qaridagi zahiralarni topish va shu bilan birga "Muruntog'" kar'eri namligini bartaraf etishdir.

Kon ta'mirlash stexi (KTS) kon qurilmalarini, kar'er uchun barcha turdagi kon texnikasini tamirlash va yig'ishga ixtisoslashgan. Bu yerda AQSh, Germaniya, Yaponiya davlatlarida ishlab chiqarilgan gidravlik ekskavatorlarga xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgan.

13 – rasm. Muruntog' koni



14 – rasm. Kondan xom ashyoni qazib olish



2-Gidrometallurgiya zavodi (GMZ)

Muruntog' konidagi ma'danni qayta ishlab chiqarish va affinatlangan oltinni ishlab chiqarish bo'yicha 1969 yilda 2-Gidrometallurgiya zavodi ishga tushirildi. Bugungi kunda bu yerda kombinatning boshqa bo'linmalaridagi va "Amantaytau Goldfids" O'zbekiston – Buyuk Britaniya qo'shma korxonasi yarim mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Bu zavodda jahon amaliyotda ilk bor sianli pulpalardan pravitastiya yutish texnologiyasidan foydalanib, MMS tegirmonlarida namli yarim o'z-o'zini maydalash sxemasi ishlatilgan va bundan tashqari oltin elektrolizida ishlatilgan moddalardan palladiyning metallic kumushini olish usullari ishlab chiqilgan va qo'llanilgan. Ma'danlarni qayta ishlash hajmlarini oshirishga maydalash va klassifikastiya jarayonlarini avtomatik boshqarish tizimining joriy etilishi sabab bo'ldi va bu o'z navbatida tegirmon bloklarining samaradorligini 5-7 % oshirdi. 2-GMZ dinamik ravishda rivojlanib bormoqda: agar zavod birinchi navbatining loyihaviy samaradorligi yiliga 5 million tonna bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ushbu ko'rsatkich 35 million tonnadan oshib ketdi.

2-GMZ ning rivojlanish tarixi – bu faqat qayta ishlab chiqarilgan ma'dan hajmini uzluksiz o'sishi emas, balki tayyor mahsulotning doimiy yuqori sifatidir va bunga turli diplomlar va xalqaro tashkilotlar sovrinlari guvohidir. 1994 yilda yonbilar bozorining London assosastiyasi Arbitraj tajribaxonasi, 1998 yilda sanoat mollari Tokio birjasi tomonidan Muruntog' oltiniga "Maqbul ta'minlash" maqomi berilgan. Shundan buyon O'zbekistonning oltin yonbilaridagi Tovar belgilari mahsulotning kafolatlangan sifatini aks ettirib, butun dunyo hurmatiga sazovor bo'ldi. NKMK ning xalqaro tashkilotlaridan olingan mukofot va sovrinlari O'zbekiston oltini sifati yuqori baholagan.

Markaziy texnika ta'mirlash sexi (MTTS)

Mana 45 yildirki, markaziy texnika ta'mirlash sexi sanoat majmuasining asosiy ta'mirlash bazasi bo'lib hisoblanadi. Ushbu bo'linma Muruntog' va Toshkura, 2-GMZ, Avtotransport boshqarmasi, Temir yo'l boshqarmasi, uy-joy kommunal boshqarmasi, SIST va KS, "Potok"ZKK va boshqa bo'linmadagi faoliyatini uzluksiz va xotirjam ishlashini ta'minlaydi. Sexning asosiy

vazifalaridan biri bu – texnologik jihozlar uchun kerakli ehtiyot qismlarini tayyorlash va ta'mirlash. Sex ustalari turli-tuman masalalarni echadilar: tegirmonlarni ta'mirlashdan tortib, yirik vaznli texnologik jihozlarni, shu jumladan spiralli tasniflagichlarni, ekskavator cho'michlari-yu, dumkar – vagonlargacha montoj qilish va ta'mirlash ishlarini olib boradilar.

Qizilqum fosforit majmuasi (QFM)

Qizilqum fosforit majmuasi - mustaqil O'zbekiston sanoatining ramzi bo'lib hisoblanadi. Jeroy fosforit koni zaxirasi, sifati geologik va konchilik sharoiti bo'yicha MDH davlatlari orasida alohida ajralib turadigan ishlab chiqarish majmuasi hisoblanadi. Shuningdek, Jeroy fosforit koni zaxira hajmi jihatidan dunyo konlari ichida birinchi o'nlikka kiradi. Sifat va texnologik ko'rsatkichlar bo'yicha kompleks mahsuloti respublikamizdagi qayta ishlab chiqaradigan zavodlar talablariga rioya qiladi.

Zarafshon qurilish boshqarmasi (ZQB)

Zarafshon qurilish boshqarmasi – rivojlangan infratuzilmali qurilish majmuasidir. 45 yil mobaynida Zarafshonlik quruvchilar noyob sanoat ob'yektlarini yaratdilar, yo'llar qurdilar, shaharlar barpo etdilar, kombinat xodimlari uchun dam olish maskanlari, kasalxonalar, bolalar oromgohlari, maktablar va boshqa turli sanoat va ijtimoiy ob'yektlarini qurib foydalanishga topshirdilar. ZQB umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan 3-GMZ (Uchquduq), Qizilqum fosforit majmuasi, Tomdida yangi tuman markazi, Toshkent viloyatida "Gorniyok" pansionatini, Toshkent shahrida zamonaviy biznes markazi va boshqa ob'yektlarni qurib bitkazildi.

15 – rasm. Qizilqum fosforit majmuasi (QFM)



16 – rasm. Oltin qazib olish jarayoni



Zarafshon quruvchilari mehnat qilayotgan barcha qurilish maydonlarida yangi texnologiyalar, zamonaviy materiallar, jihozlar va texnikalar muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. ZQB quruvchilari respublikamizda katta shuhratga ega bo'ldilar. 2007 yilda Zarafshon qurilish boshqarmasi respublikamizda o'tkazilgan "Loyihalash, qurilish va qurilish mollari ishlab chiqarish bo'yicha **eng yaxshi korxon**a" ko'rigi g'olibi bo'ldi. O'sha yilning o'zidayoq Zarafshon quruvchilari xalqaro shuhratga ega bo'ldilar. Ispaniyada ta'sis etilgan "**Qurilishdagi namuna**" deb nomlangan Yevropa sovriniga sazovor bo'ldilar.

Aholida harbiylashtirilgan kon qutqarish zavodi (AHKQZ)

Aholida harbiylashtirilgan kon qutqarish zavodi kasbiy ixtisoslashgan tashkilot bo'lib, belgilangan tartibda "Muruntog'" shaxtasi, "Muruntog'" koni, 2-GMZ va qattiq ta'sir etuvchi zaharli moddalar ishlatadigan markaziy kon boshqarmasi barcha bo'linmalarining kon qutqarish xizmatini bajarish uchun mo'ljallangan.

"Amontaytau Goldfields" qo'shma korxonasi

Mustaqillik yillarida yaqin va yiroq chet el hamkorlari bilan aloqa chegaralari kengaytirildi. Navoiy kon metalurgiya kombinati respublikada birinchilar qatorida to'g'ridan – to'g'ri xalqaro aloqalarga chiqdi. Turli firmalar bilan uzoq muddatli munosabatlar o'rnatildi. Shunday korxonalaridan biri "Amontaytau Goldfields" O'zbek – Buyuk Britaniya qo'shma korxonasidir.

"Potok- mahsulot" qishloq xo'jaligi korxonasi

"Potok" Zarafshon kon korxonasining bo'linmasi bo'lib, murakkab cho'l, markaziy Qizilqumning o'ta kontinental iqlimi sharoitida faoliyat yurutuvchi kichik agro sanoat majmuasidir. Ushbu qishloq xo'jaligi korxonasi 9 ta ishlab chiqarish bo'linmalaridan tashkil topgan. Bular em – xashak etishtirishga mo'ljallangan dalalar, mevali bog', cho'chqa go'shti mahsulotlari fermalari, sut, kolbasa, non va qandolat stexi, shuningdek chakana savdo do'konlari tarmog'idir.

Bog'dorchilik Jamiyatlari

Zarafshon shahri sahroning eng markazida joylashganiga qaramasdan, shaharliklar yilning har faslida "Potok- Mahsulot" qishloq xo'jalik korxonasini ishlab chiqaradigan meva va sabzavot, go'sht va sut mahsulotlarining yo'qligini sezmaydilar. Bundan tashqari Zarafshon atrofida joylashgan "Oazis", "Metallurg", "Miroj", "Urajay" bog'dorchilik jamiyatlari ko'm-ko'k bog'rog'laga burkangan.

Avtomobil transporti boshqarmasi (ATB)

Avtomobil transporti boshqarmasi – Muruntog' va Toshkura karyeralaridagi kon jinslarni tashiydi, oltinni uyumlab ishqorlash sexi va Muruntog' konlarini yo'l qurilish mashinalari va sug'orish texnikasi bilan ta'minlab beradi. Murakkab texnikalarni ta'mirlash va unga xizmat ko'rsatish yuqori malakali ishchilar yordamida amalga oshiriladi. Yordamchi va yo'l qurilish texnikasi haydovchi va mashinistlari kon yo'llarini quradilar, ta'mirlaydilar va holatini me'yorda saqlaydilar, kon jinslarini tashiydilar, yo'llarda va ma'dan qo'yilmalaridagi chang-to'zonni bartaraf qiladilar.

Temir yo'l transporti boshqarmasi (TYTB)

1966 yil temir yo'l sexi tuzilgan. 1990 yilda bu sex Temir yo'l transporti boshqarmasi deb atala boshlandi. Ushbu boshqarma yil davomida 35 mln t ma'dan va 700000 t ortiq xo'jalik yuklarini tashiydi. Temir yo'l transporti boshqarmasining yuk tashish samaradorligini oshirish uchun teplovozlarni kapital ta'mirlash ishlari yo'lga qo'yilganligi sababli anchagina mablag'li tejashga erishildi. "Besopan" maydonida ma'muriy, maishiy bo'limining qurilish ishlari tugatilib ishga tushirildi.

Tashqi suv ta'minoti birlashgan energiya xizmati (TSTBEX)

Tashqi suv ta'minoti birlashgan energiya xizmati – Zarafshon va Uchquduq sanoat mintaqasini suv bilan ta'minlayotgan Amudaryo – Zarafshon suv oqimiga xizmat ko'rsatish maqsadida tuzilgan.

2.2 SHAHARDA NOMODDIY ISHLAB CHIQRISH TARMOQLARINING RIVOJLANISHI

Shaharda oliy, o'rta-maxsus o'quv muassasalari tarmog'i faoliyat ko'rsatmoqda. Jumladan: Zarafshon sanoat kasb-hunar kolleji, Navoiy Konchilik kollejining Zarafshon filiali, tibbiyot kolleji, akademik listey va kompyuter texnologiyalari kolleji, shuningdek, umumta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda. Shahar va geologik posyolkalarning maktablarida kompyuter xonalari mavjud va internet tarmoqlariga ulangan.

Zarafshon shahrida Navoiy davlat konchilik institutining umumtexnika fakulteti joylashgan. Ushbu fakultet kon qazib olish sanoati uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. 2000 yildan shaharda "Shodlik" mintaqaviy bolalar uyi faoliyat yuritmoqda.

Shahar aholisining tibbiy xizmati 3 - tibbiy sanitariya qismiga yuklatilgan. Shaharliklarning ma'naviy xordiq chiqarishi uchun "Oltin vodiy", "Quruvchi", "Tinchlik" madaniy uylari xizmat ko'rsatmoqda.

Shaharda musulmonlar masjidi, provaslav cherkovi mavjud, 5 ta diniy tashkilotlar ro'yxatga olingan. Shaharda 2 ta yuridik shaxs mavqeyiga ega bo'lgan bozor – dehqon bozori va buyum bozori faoliyat yuritmoqda.

Ta'lim sohasi

2007 yildan buyon **Navoy davlat Konchilik institutining Zarafshon filialida** kon metallurgiya ishlab chiqarish sohasi uchun amaliy ko'nikmalarni yechish va bilim darajasini oshirish uchun talabalarni qabul qilinmoqda. Yil davomida ijodiy faol talabalar maslahatchilari bilan markaziy kon boshqaramasi haqidagi adabiyotlarni o'rganmoqdalar. Kon boshqaramasi bo'linmalari ichida ishtirok etib, seminar anjumanlarda qatnashmoqdalar. Talabalar yangi axborot

vositalari bilan tanishib, ma'ruza jarayonida notanish auditoriya bilan muloqotda bo'lish hamda axborotlarni mantiqiy to'ri ifodalay bilish sirlarini o'rganmoqdalar. Talabalarning ilmiy ishlari boshqalardan farqli o'laroq, tadqiqotlarning faoliyat yuritayotgan ishlab chiqarish sharoitida qo'llanila olishidadir. Ilmiy tadqiqot ishlarining amaliy ko'nikmalarini talabalar nafaqat o'quv yili davomida, balki yozgi ta'til davomida ishlab turib davom ettiradilar. Ish joyi tanlangan ilmiy tadqiqot mavzusiga bog'liq ravishda olib boriladi. Bunda nazariy tayyorgarlik ko'rgan talaba kelajakdagi kasbi uchun kerakli amaliy ko'nikmalar va bilimlarni egallashga imkon yaratish zaruratidan kelib chiqqan holda tanlanadi.

Zarafshon sanoat kasb-hunar kolleji (ZS KHK)

Zarafshon sanoat kasb-hunar kolleji o'z faoliyatini 1971 yilda boshlagan. Ayni paytda bu kollejda 1200 talaba tahsil olmoqda. ZS KHK 11 yo'nalish bo'yicha malakali mutaxassislarni tayyorlaydi va vohaning kadrlar tayyorlaydigan yetakchi markaziga aylangan. Bu yerdagi o'quv xonalari eng kerakli qo'llanmalar, asbob-uskunalar, kompyuterlar bilan jihozlangan. Elektr payvandlash, sanoat korxonalarining elektr jihozlari yuqori voltli NO'A va A kanalizastiya va suv ta'minoti, kon elektr jihozlari, ikkita chilangarlik, gaz payvandlash ustaxonalari, avtomobillarning tuzilishi va ularga texnik xizmat qilish poligoni va avtodrom va avtokran maydonchalari mavjud.

Axborot resurs markazi

Zarafshon shahar xalq ta'limi bo'limiga qarashli axborot resurs markazining qulay joyda joylashganligi, zamonaviy tashqi ko'rinishga ega ekanligi, shinamli hamda xodimlarning mijozga nisbatan xushmomulalagi tufayli shaharliklarning sevimli maskani hisoblanadi. Axborot resurs markazida kompyuter zali mavjud bo'lib bu erda nafaqat ishlash balki internet tarmog'idan ixtiyoriy qiziqtiruvchi axborotlarni olish mumkin, tinch va shinam o'quv zallari kitob bilan osoyishta ishlash va bilim olish imkoniyatini yaratadi.

17 – rasm. Zarafshon shahridagi akademik listey



18 – rasm. Zarafshon shahrida bayram tantanalari



Tasviriy va amaliy san'at studiyasi

Zarafshon shahrida go'zallikka intilayotgan, qobiliyatli va iste'dodli bolalarimiz uchun 2006 yidan buyon tasviriy va amaliy san'at studiyasi o'z faoliyatini olib bormoqda. Studiya doimiy ravishda ko'rgazmalar tashkil etiladi mashg'ulotlarni esa O'zbekiston Respublikasi San'at akademiyasi qoshida a'zolari Golishenko Gennadiy va Bobikin Vladimirlar olib boradi.

Maktabgacha tarbiya muassasalari

Har bir inson hayoti davomida ajoyib davrni bosib o'tadi - bu bolalik davridir jamiyat boshidan qanday qiyinchilik o'tkazamasin, bolalarni baxtli qilishga, ularning insoniy qadriyatlarni singdirishga ijtimoiy faol shaxsni voyaga etkazishga, bolalik hayotini porloq qilishga intiladi. Buning uchun Zarafshonda o'sib kelayotgan yoshlarni tarbiyalash, unga har tomonlama bilim berishga etarli sharoit yaratilgan ta'lim va tarbiya "Ikkinchi ming yillik bolasi" dasturi talablari asosida olib borilmoqda. Bolalar o'z individual qobiliyatlarini namoyon qilish uchun ekologiya dasturlari tasviriy faoliyat mehnatga opid mashg'ulotlar bilan shug'ullanib kelmoqdalar. Jismoniy madaniyat va musiqa zallari ma'naviyat va ma'rifat xonalari va nutq o'stirish xonalari bolalar ixtiyoridadir. Mashg'ulotlarni o'z ishini puxta bajaradigan tajribali pedagoglar olib bormoqdalar.

Sog'likni saqlash tizimi

3-tibbiy sanitariya qismi

Zarafshon sanoat mintaqasining katta davolash maskani bo'lib hisoblanadi. Tibbiy markazlardan uzoq joylashganligi tufayli Zarafshon, 3-TSQ xodimlari shahar aholisiga va atrofidagi qishloq aholisiga malakali tibbiy yordam ko'rsatadi.

Bugungi kunda 3-TSQ – zamonaviy ko'p tarmoqli tibbiy muassasadir. Bu yerda 1200 yaqin xodim faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Jamoa ko'p millatli, ammo ularni yagona vazifa birlashtiradi. Aholi salomatligini asrash. 3-markaziy dorixona 3-TSQ bir bo'linmasi bo'lib barcha dori darmonlar bilan to'liq ta'minlangan. Bundan tashqari 3- markaziy dorixona shahar aholisiga retseptlar bo'yicha dori

tayyorlash hamda tayyor dori vositalari va tibbiyot yo'nalishidagi buyumlarni sotish bilan shug'ullanadi. 3-markaziy dorixona imtiyozga ega bo'lgan bemorlar guruhini (ankologik, endokrin, ruhiy kasallar) II Jahon urushi qatnashchilari, Chernobil AES avariya qutqaruvchilari va boshqalar bepul retseptli dorilar bilan ta'minlanadilar.

Zolotinka BSB

Yosh zarafshonliklar respublikamizda eng yaxshilar qatorida o'rin egallagan bolalar sog'lomlashtirish bazasidan biri – “Zolotinka (Oltin arrachasi)” oromgohida o'zlarning yozgi ta'tillarini maroqli o'tkazadilar. Oromgohiga karashli bilan bolalar ertaklar dunyosiga tushub qolganlarini sezadilar. Bu yerdagi rang-barang badiiy bezaklar yotoq korpuslari oshxona va boshqa binolar bolalarga orom va xushnudlik bag'ishlaydi. Oromgohidagi attrakstionlar, arg'imchoqlar, ajdarho ko'rinishidagi batut bolalarga xursandchilik bag'ishlaydi.

Turli yoshdagi bolalar ixtiyorida kompyuter zali, internet kafe, yumshoq o'rindiqli va shaxsiy kinoteatrli keng video salon mavjud. Deyarli har kuni oromgohning ochiq estradasida bolalar konstertlari, tanlovlar, ko'riklar va turli ko'ngil ochar dasturlar bo'lib o'tadi. Lekin bolalarning eng sevimli hordiq chiqarish joyi bu – allabatta, yirik suv arg'imcho'g'i o'rnatilgan kattalar va kichiklar basseynlardir. Basseynlar yuqorisida bolalar shaharchasi “qo'riqchisi” va “Zolotinka” oromgohi timsoliga aylangan 15 metrli bolalarning sevimli qaxramoni Gulliver qad rostlab turibdi.

Konchi pansionati

Konchi pansionati Zarafshon aholisining sevimli dam olish maskani. Ushbu pansionat respublikamizning ekologik jihatdan toza va musaffo joylaridan biri-Chorvoqsoy suv omborining o'rnida joylashgan. Bu yerda ta'tilni ajoyib o'tkazish mumkin, buning uchun barcha sharoitlar mujassam: tog' cho'qqilari va qorlarning go'zalligi, ajoyib tog' havosi, mo'jizaviy ko'li, baliq ovi va turlicha turistik marshrutlar mehmonlarga havola.

Kichik yoshdagi dam oluvchilar uchun qiziqarli o'yinchoqlar, televizor va filmotekalar bilan jihozlangan bolalar dam olish xonasi mavjud.

Zarafshon shahar madaniyat muassasalarining faoliyati

Zarafshon shahrining madaniy hayotida “Oltin vodiylar” madaniyat uyi muhim o‘rin egallaydi. 10 ta badiiy havaskorlik jamoalarida 700 dan ortiq kishi o‘z mahoratlarini hadiya qilishga sazovor shuningdek “Quvnoqlar va Zukkolar”, “Nima? Qaerda? Qachon?” va imkoniyati cheklangan kishilar uchun “Nadejda” klublari ham katta e‘tiborga sazovor bo‘lmoqda.

“Afsona”

“Afsona” ansambli 2000 yil tashkil etilib, 2006 yilda “Badiiy havaskorlik xalq jamoasi” degan unvonga sazovor bo‘ldi. “Afsona”ning har chiqishlari bu milliy kuylarga munosib tushgan monandlik haqiqiy mahorat o‘tgan yillar mobaynida ansambl bir necha yuz iqtidorli bitiruvchilarni tarbiyalab chiqardi.

“Sozvezdie”-

“Sozvezdie” – estrada raqsi, xalq ansambli 2010 yilda 30 yilligini nishonladi. Bu ansamblning har bir chiqishi o‘zgacha teatirlashgan badiiy asar. Mehnatsevarlik va haqiqiy iste‘dod natijasida ansambl nafaqat vatanimizda balki Rossiya, Ukraina, Polsha davlatlarida ham tan olindi.

“Funke dance”

“Funke dance”- xalq raqsi jamoasi zamonaviy yoshlar madaniyatining “birinchi qaldirg‘ochlari”. Bu jamoa 1997 yilda “fank” uslubi shinavandalari tomonidan tashkil etilgan edi. Ikki yildan keyin bu jamoa “Oltin vodiylar” madaniyat tarkibiga kirdi. Hozirgi kunda jamoaning ilk o‘quvchilari oreograflarga aylanib yosh Zarafshonliklarni yangi avlodini etishtirmoqdalar.

“Atlas”- estrada orkestri 1975 yillarda tashkil etilib Qizilqum vohasini zabt qilgan fidoiylarga bag‘ishlangan qo‘shiqlar repertuarining ko‘p qismini tashkil etadi. Hozirgi kunda o‘zbek, rus, qozoq, ingliz, ukrain tillarida qo‘shiqlarni ijro etishadi. Shahrimizda bironta bayram “Atlas” gurihisiz o‘tmaydi. Hozirgi kunda Z klubi harakati O‘zbekistonda katta muvaffaqiyatlarga ega bo‘lmoqda va yil sayin o‘z muxlislarini ko‘paytirmoqda. Bizning shahrimizdagi mashhur jamoa “Zolotaya

lixoradka”- barcha Zarafshonliklarning faxri. Ketma – ket 2 yil “Zolotaya lixoradka” NKMK Navoiy hududiy ligasi chempioni 2008 yilda respublika chempioni bo’lgan, ikki marta Sochi shahrida ZK festivalda ishtirok etib O’zbekiston komandalari ichida birinchi bo’lgan, hozir esa O’zbekiston oliy ligasida o’ynab, munosib o’rinbosarlarni tarbiyalamoqda. 2010 yildan buyon shaharda Ochiq Zarafshon ligasi o’z ishini boshladi va bu yerda Zarafshon, Nurabod, Uchquduq shaharlarida 8 yosh komanda o’z o’yinlarini ko’rsatmoqda. 2007 yil Zarafshonlik bilimdonlar shaharda o’zining “Nima? Qaerda? Qachon?” intellektual klubini tashkil etdi. Shundan so’ng viloyat va respublika miqyosidagi turli klublarda va talablarda erishdi. 2008 yilda Zarafshon kubogiga an’anaviy bo’lib qolgan respublika darajasidagi nufuzli musobaqa Qizilqum kubogini tashkil etdi. Bugungi kunda klub 8 jamoadan iborat bo’lib 50 dan ortiq mamlakatimizning kuchli jamoalari bilan raqobatlashmoqda.

Oltin vodiy

Oltin vodiy-madaniyat uyining nadejda klubi imkoniyati cheklangan insonlar uchun 2009 yil aprel oyida Markaziy kon boshqarmasi rahbariyatining tashabbusi bilan tashkil etilgan klub faoliyatining asosiy vazifalari – ijtimoiy madaniy va ko’ngil ochar turdagi o’sha faoliyat umumiy qiziqishlar asosida imkoniyati cheklangan insonlarning bosh vatini tashkil etish. Bundan tashqari “Nima? Qaerda? Qachon?” bilimdonlar klubida nomdor jamoa Nadejda o’ynamoqda. Shuningdek, klub a’zolari uchun ekskursiya, qiziqarli seminarlar, ovunchoq o’yinlar o’tkaziladi, filmlar namoyish etiladi. Karaoke bayramlar uyishtiriladi.

19 – rasm. Zarafshon shahridagi musulmonlar masjidi



20 – rasm. Svyato-Nikolskiy cherkovi



Din

Zarafshon shahridagi musulmonlar masjidi va provaslavlarning Svyato-Nikolskiy cherkovi millatlararo tinchlikni saqlashga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Chunki, islom va xristian ta'limoti ko'p jihatlardan bir-biriga o'xshash bo'lib, umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib etadi. Bu o'xshashliklar insonlarga ya'ni turli dinga moil insonlar bir-birini tushunishga muhtoj va og'ir avloddagilarga yordam berib, ularni qo'llab-quvvatlaydi.

Qizilqum cho'lini o'zlashtirish tarixi muzeyi

Qizilqum cho'lini o'zlashtirish tarixi muzeyi nomli shahar muzeyi o'lkaning sanoati sohasida o'zlashtirish yilnomasi hisoblanadi. Yillar davomida muzey shaxsiy eskpozitsiyalarini kengaytiribgina qolmay, balki shahar uchun ma'naviyat-ma'rifat oid masalalarda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bugungi kunda muzey kon boshqarmasining o'quv markazi tinglovchilari, NDKI filiali, Zarafshon sanoat kasb-hunar va tibbiyot kolleji, akademik listey talabalari hamda umumta'lim maktab o'quvchilari uchun o'quv-tarbiyaviy markaz hisoblanib kelmoqda.

Zarafshonning sportdagi muvaffaqiyatlari

Zarafshonliklar uchun parashut sporti azaliy sport turlaridan biri bo'lib, Qizilqum vohasi 30 yildan buyon faoliyat ko'rsatmoqda. Bu vaqt mobaynida 10000 dan ortiq o'smirlar bepoyon osmon romantikasiga oshno bo'ldilar. "Zardon" nomli aviastion-texnik sport klubi O'zbekiston Respublikasining "Vatanparvar" qurolli kuchlarga ko'maklashish jamiyati tasarrufiga kirib, asosan O'zbekiston qurolli kuchlariga xizmat qilish uchun yoshlarni tayyorlash. Bunda parashutdan sakrash bilan birga kross, suzish, turnikda tortilish, miltiqdan otish kabi sport turlari bilan shug'ullanadilar. Mana 30 yildan ortiq vaqt mobaynida "Progress" jismoniy tarbiya va sport majmuasi oliy toifali sportchilarni tayyorlab kelmoqda. Bugungi kunda "Progress" jismoniy tarbiya majmuasida sportning 14 xil turi bo'yicha klublar faoliyat yuritib kelmoqda. Jismoniy tarbiya va sport bilan

shug'ullanuvchilar soni ikki ming kishiga yaqin, sog'lomlashtirish guruhlarida esa mingga yaqin kishini tashkil etadi. Bolalar erkin kurash, sambo, dzyudo, pauerlifting, voleybol, karate, basketbol, badiiy gimnastika, futbol, VTF taekvando yangi sport turlaridan "O'zbek jang san'ati" kabi sport turlari bilan shug'ullanadilar. Muntazam 1000 dam ortiq yoshlar sport sekstiyalariga qatnaydilar. 1990 yildan buyon Zarafshonda "Motokross" havaskorlik texnik ijod markazi o'z faoliyatini boshlagan. Sportning texnik turlari bilan shug'ullanib, shahrimizning yigit va qizlari avtomototransportni boshqarish va texnik xizmat ko'rsatish sirlarini o'rganishadi.

Bu markaz 10 ta sport ustasi, 6 sport ustaligiga nomzodlarni tayyorlagan. Markaz sportchilari motokross bo'yicha ikki karra O'zbekiston chempionlari bo'lgan. 2006 yilda Rossiyada o'tkazilgan shahriy zonaning Yevropa kubogi uchun o'yinlarida jamoa hisobida II-o'rinni egallab, 2 ta oltin, 1 kumush va 2 bronza medallarini qo'lga kiritdi. 2009 yilda Qozog'istonda o'tkazilgan chempionatda II-o'rinni egallab qaytishdi.

Zarafshon – Qizilum vohasining futbol markazi hisoblanadi. Zarafshon "Qizilqum" futbol jamoasi yurtimiz chempionatining oliy ligasida qatnashib kelmoqda. Bu yerda mini-futbol bo'yicha xalqaro musoboqalar o'tkazilib kelinmoqda. MDH davlatlarining afsonaviy "SSKA" (Moskva), "Dinamo" (Kiev), "Zenit" (Sankt- Peterburg), "Sokol" (Uchquduq), "Paxtakor" (Toshkent), "Qayrat" (Almati), "Kolxozchi", "Zarafshon" (Navoiy), "Aurum" (Zarafshon) va boshqa jamoalar faxriylari ishtirok etdilar.

Uy – joy kommunal boshqarmasi (UJKB)

Zarafshon shahrini uy- joy kommunal boshqarmasiz tasavvur qilish qiyin, chunki bu jamoa tomonidan uy-joy fondini, yotoqxonalar, mehmonxonalar, madaniy – maishiy ob'yektlarni ta'mirlash ishlari katta hajmda bajarilmoqda, kommunal xizmatlarning barcha turlari sifatli va tezkor yetkazilmoqda. Shaharning obodonlashtirish – bu UJKB ni asosiy vazifasi hisoblanadi. "UJKB" jamoasi

zarafshonliklarni tabiatimizning to'rt faslida ham o'zlarini qulay his etishlari uchun o'z mehnatlarini ayamayaptilar.

2.3 ZARAFSHON SHAHRI RIVOJLANISHIDAGI BA'ZI BIR MUAMMOLAR VA ULARNI HAL QILISH YO'LLARI

Har qanday shaharda ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishlar bilan birga u erda hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar ham mavjud. Ushbu muammolarning ko'p yoki kamligi o'sha shaharning katta – kichikligi bilan bog'liq. Albatta, katta shaharlar ijtimoiy–iqtisodiy hayotning ko'pchilik sohalarini o'ziga mujasmlantirgani bois, ularda turli xil muammolar uchraydi. Bu haqda E.A.Axmedovning quyidagi fikrini keltirish maqsadga muvofiqdir: “Shaharlar kattalasha borga sari undagi muammolar ham ko'paygandan ko'payaveradi, bu muammolar murakkablashgandan murakkablashaveradi, ularni hal qilish esa qiyinlashgandan qiyinlashaveradi ...” (2002).

Quyida Zarafshon shahri rivojlanishining ayrim muammolari ko'rib chiqiladi.

Mehnat resurslaridan foydalanish muammosi. Mustaqillik yillarida mamlakat mehnat bozorida katta o'zgarishlar yuz bermoqda. Yangi munosabatlar sharoitida mehnat bozorining o'ziga xos xususiyati unda ishsizlik darajasi ortib boradi. Iqtisodiy inqirozlar, korxonalar o'rtasidagi gorizontal aloqalarning uzilishi ishsizlikning oshishiga sabab bo'lmoqda. Zarafshon shahrining funkstional tipini bir tomonlama rivojlanganligi, iqtisodiy islohotlarning sekin borishi, qo'shma korxonalarni kamligi ishsizlar sonining ortishiga olib kelgan.

Resurs shaharlarda ham o'ziga xos ishsizlik muammosi mavjud. Odatda bunday shaharlar ma'lum bir turdagi foydali qazilmalarni qazib olish evaziga shakllanadi. Ko'rinib turibdiki, resurs shaharlar tor ixtisoslashuvga ega bo'lib, ularda og'ir sanoatning muayyan tarmog'iga tegishli korxonalar joylashadi. Masalan, Zarafshonda Qizilqum fosforit majmuasi, Markaziy kon boshqarmasi, 2-Gidrometallurgiya zavodi, Muruntog' shaxtasi kabi korxonalar faoliyat yuritmoqda. Og'ir sanoat korxonalari erkaklar bandligini ta'minlashda muhim rol

o'ynaydi. Lekin, bu erda ayollarni ish bilan ta'minlanish holati ko'ngildagidek emas. Chunki, resurs shaharlarda ayollar mehnatini talab qiladigan korxonalar deyarli yo'q. Xullas, ishsizlik muammosi bozor iqtisodiyotining doimiy yo'ldoshi bo'lib, aholisi tez sur'atlar bilan o'sayotgan, xo'jaligi bir tomonlama rivojlangan va ichki hududiy tafovutlari katta bo'lgan mintaqalarda jiddiy tus olmoqda.

Aholiga xizmat ko'rsatish sohalariidagi muammolar. Shaharlar rivojlanishi bilan aholiga xizmat ko'rsatish sohalari ham son va sifat jihatidan takomillashib, yaxshilanib boradi. Chunonchi, istiqlol davrida xizmat ko'rsatishning zamonaviy turlari kirib keldi, sohada tarkibiy o'zgarishlar yuz berdi. Yana bir e'tiborli jihati shundaki, xizmat ko'rsatish sohalarini xususiylashtirish va nodavlat sektorga o'tishi avj oldi. Zarafshon shahrida ham aholiga xizmat ko'rsatish sohaslari asta-sekin rivojlanib bormoqda. Shu bilan birga sohada hal qilinishi zarur bo'lgan muammolar quyidagilar:

1. Aholiga xizmat ko'rsatish sohalarining zamonaviy talab darajasida emasligi. Garchi sohada xususiylashtirish rivojlangan bo'lsada, aksariyat xizmat ko'rsatish shaxobchalari eski texnologiyalar asosida faoliyat yuritmoqda. Xususan, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish sohalarining ahvoli, ularni zamonaviyligi bugungi kunning talablariga javob bermaydi.

2. Zarafshon o'rta shaharlar qatoriga kirsada, unda xizmat ko'rsatishning zamonaviy turlari kirib kelishida qiyinchiliklar kuzatilmoqda. Bunga uning geografik o'rni, markazdan ancha olisda joylashganligi sabab bo'lmoqda.

3. Shaharda maishiy xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlanmaganligi. Zarafshon singari issiq mintaqadagi shaharlarda esa aholiga maishiy xizmat ko'rsatishning ishlab chiqarish xarakteriga ega bo'lmagan turlari – sartaroshxonlar, hammomlar, kir yuvish muassasalari sonini ko'paytirish maqsadga muvofiq.

Bozor islohotlarining borishidagi muammolar. Navoiy viloyati shaharlarning, xususan Zarafshon shahrining bozor munosabatlariga o'tishi bir xilda kechmayapti. Manzilgohlarning bozor iqtisodiyotiga moslashuvini ulardagi qo'shma korxonalar sonidan bilish mumkin. Shaharda faqatgina ikkita hamkorlikdagi korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Bu esa mazkur shaharning

geografik o'rnini noqulayligidan dalolat beradi. Ushbu holat mazkur shaharda mavjud imkoniyatlardan yetarlicha foydalanilmayotganligidan dalolat beradi. Bu esa, o'z navbatida, shaharni bozor iqtisodiyoti sharoitida moslashishiga qiyinchiliklar tug'diradi va ulardagi muammolarni keskinlashtiradi.

Shaharlar rivojlanishining geoeologik muammolari. Shaharlar iqtisodiy va demografik salohiyatining murakkabligi tufayli ularda o'ziga xos vaziyat vujudga keladi. Bunday joylarda tabiiy landshaftlar deyarli qolmagan, atmosfera havosi ifloslangan, aholi zichligi mutassil oshib borayotganligi sababli murakkab sharoit yuzaga kelgan. Shu sababdan shaharlarda nozogeografik holat atrofdagi hududlarga nisbatan keskin farq qiladi. Ayniqsa, Zarafshon shahriga o'xshab cho'l sharoitida joylashgan shaharlarda ushbu holat yaqqol namoyon bo'ladi.

Ekologik muammolar viloyatimizning sanoat markazlari, xususan Zarafshon singari "resurs" shaharlar taraqqiyoti uchun ham qiyinchiliklar keltirib chiqarmoqda. Xususan, sobiq Ittifoqning so'nggi yillarida turli tabiiy boyliklarni ekstensiv ravishda qazib olish natijasida manzilgoh atrofida noxush ekologik vaziyat vujudga keldi. Bu holat aholi salomatligiga putur etkazmoqda. Yaqin kelajakda ushbu muammoni echishga doir choralar ko'rilmas ekan, shahar iqtisodiyotining rivojlanishi ham qiyin kechadi.

Zarafshon shahri aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash muammosi. Zarafshon shahrining suv ta'minoti Buxoro viloyatining Gazli shahri suv ta'minoti o'xshash. Chunki ikkala shaharga ham Amudaryo suvi quvur orqali olib kelingan. Zarafshonga Amudaryo suvi 240 km masofadan olib kelinadi. Suv resurslarining taqchilligi shaharni kengayishiga va uni ko'kalamzorlashtirishga ba'zan muammolarga sabab bo'lmoqda.

21 – rasm. Shahar hokimiyati binosi



22 – rasm. Shaharning tungi manzarasi



Xulosa va takliflar

Qizilqum sahrosining obod maskanlaridan biri Zarafshon shahri – O'zbekiston iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, mamlakat metallurgiya, xususan rangli metallurgiyasida mazkur shahar o'z o'rniga ega. Oltinu – zar makoni deb ta'riflanadigan bu shahar – O'zbekiston oltin qazib olish sanoatining eng yirik markazidir. Haqiqatdan ham XX asrning eng ulug' kashfiyotlaridan biri Muruntog'ning zalvorli toshlari tarkibidan oltinni ajratib olish va uni bashariyatning madaniy hayotidagi zarur ehtiyojlariga sarf qilish uchun dastlab shaharcha, keyinchalik hashamatli shahar sifatida Zarafshonning barpo etilishidir.

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, **Zarafshon shahri quyidagi xususiyatlarga** ega:

- O'zbekiston "resurs" shaharlari ichida eng kattasi hisoblanadi;
- Shaharning funkstional tiplari unchalik rivojlanmagan. Sanoati tor ixtisoslashuvga ega bo'lib, asosan ma'lum bir (rangdor metallurgiya sanoati) yo'nalishga ega;
- Cho'l mintaqasi tabiiy sharoitidan kelib chiqqan holda, shahar atrofi qishloq xo'jaligi yaxshi rivojlanmagan;
- Shaharda suv resurslarining taqchilligi shaharning kengayishiga va uni ko'kalamzorlashtirishga to'sqinlik qilmoqda;

Bitiruv malakaviy ishida olib borilgan tadqiqotlar quyidagi **taklif** va **tavsiyalarni** ishlab chiqishga imkon beradi:

1. Zarafshon singari bevosita cho'l sharoitida joylashgan shaharlarning rivojlanishi nihoyatda sekin kechadi. Sababi, issiq iqlim sharoitida juda katta hajmda suv sarflanadi. Shu bois, bunday hududlardagi shaharlar xo'jaligida suvni kam talab qiladigan tarmoqlarni rivojlantirish katta iqtisodiy samaradorlikka ega.
2. Cho'l sharoitidagi shaharlarni ko'kalamzorlashtirish o'ta muhim hisoblanadi. Ayniqsa, Zarafshon singari bevosita Qizilqum sahrosida joylashgan shaharlarda "yashil zona"ni tashkil qilish yaxshi natijalar beradi. Garchi Zarafshonda

“yashil zona” tashkil qilingan bo’lsada, kelajakda uni yanada rivojlantirishga alohida ahamiyat berish zarur.

3. Zarafshon shahri va uning atroflarida ekoturizmni rivojlantirish katta iqtisodiy samaradorlikka ega. Ayniqsa, yilning bahor faslida Zarafshon va uning atroflari ajoyib manzara kasb etadi. Shuningdek, issiq va quruq iqlim sharoitida shahar atrofi zonasida dam olish zonalarini barpo etishni ham e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim.
4. Shaharlarning bozor munosabatlariga moslashuvi ularda yaratilgan investitsiya muhiti bilan belgilanadi. Shaharlar investitsiya muhitining qulayligini undagi qo’shma korxonalar sonidan bilish mumkin. Bu borada Zarafshon shahrida ham qilinishi lozim bo’lgan talay masalalar mavjud. Kelajakda mazkur shaharda infratuzilma va investitsiya muhitini yaxshilash asosida xorijiy sarmoyalarni jalb qilish yo’llarini izlab topish maqsadga muvofiqdir.

Zarafshon shahri va uning atrofida juda katta zahiraga ega bo’lgan mineral xom ashyo konlarining mavjudligi aholi manzilgohining kelajak istiqbolini belgilab beradi. Kelajakda bunday hududlarning yuksalishi O’zbekiston iqtisodiyotini ko’tarilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari. – T., O'zbekiston, 1997. 320 b.
2. Административно-территориальное деление 2008. Статистический сборник. – Т., 2008. – 102 с.
3. Акрамов З.М. Проблемы хозяйственного освоения пустынных и горно-предгорных территорий. – Т.: Узбекистан, 1974. – 176 с.
4. Алибеков Л.А. Щедрость пустыни. – М.: Мысль, 1988. – 174 с.
5. Alibekov L.A. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. –Samarqand, 2006.163 b.
6. Asanov G.R. Sostial-iqtisodiy geografiya: termin va tushunchalar izohli lug'ati. – T., O'qituvchi, 1990. –248 b.
7. Ата-Мирзаев О.Б. Региональное прогнозирование расселения и управление процессом урбанизации. Т., 1979.
8. Ата-Мирзаев О.Б, Гентшке В., Муртазаева Р., Салиев А. Историко-демографические очерки урбанизации Узбекистана. Т., 2002.
9. Ahmedov E. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida.-T., “Abu Ali Ibn Sino”, 2002. –222 b.
- 10.Бабаев А.Г., Зонн И.С., Дроздов Н.Н., Фрейкин З.Г. Пустыни. – М.: Мысль, 1986. – 319 с.
11. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. -T.: O'qituvchi, 2002.–264 b
12. Жумашов А.П. Эколого-географические условия и типы пустынь Средней Азии. – Ашхабад: Ылым, 1990. – 316 с.
13. Лаппо Г.М. География городов. – М.: Владос, 1997. – 480 с.
14. Лейзерович Е.Е. Экономико-географические проблемы освоения пустынь. – М.: Мысль, 1968. – 158 с.
15. Mirakmalov M.T. Geografiyada toponimika. Т., 2002. – 80 b.
16. Перспективы развития производительных сил Бухара-Навоийского (Кызилкумского) производственно-территориального комплекса. – Т., 1972. – 863 с.

17. Rasulov M. Cho'llarni o'zlashtirish muammolari. – T.: O'zbekiston, 1973. – 38 b.
18. Римша А.Н. Город и жаркий климат. – М.: Стройиздат, 1975. – 280 с.
19. Салиев А.С. Проблемы расселения и урбанизации в республиках Средней Азии. – Т.: Фан, 1991. – 109 с.
20. Soliev A.S., Ahmedov E.A. va b. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. – T.: Universitet, 2003. – 304 b.
21. Экономический потенциал пустынь и полупустынь Узбекской ССР и пути его реализации / Под ред. К.И.Лапкина, К.Н.Бедринцева. – Т.: Фан, 1987. – 189 с.
22. Qodirova T.F. Navoiy. –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. – 47 b.
23. Hasanov I.A., G'ulomov P.N. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. –T.: O'qituvchi, 2007. – 162 b.